

## SUG‘ORILADIGAN YERLARDAN FOYDALANISH TIZIMINI TARTIBGA SOLISHNING IQTISODIY-EKOLOGIK MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISHDA TIZIMLI VA KOMPLEKS YONDASHUVNING VAZIFALARI VA XUSUSIYATLARI

*Jumayev Ramil Chorshanbiyevich*

*Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti*

*E-mail: [ramil.9094@gmail.com](mailto:ramil.9094@gmail.com)*

*Tel: +998936362055*

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada mintaqalarda sug‘oriladigan yerlardan foydalanish tizimini tartibga solishning iqtisodiy-ekologik mexanizmlarini shakllantirishda tizimli va kompleks yondashuvning vazifalari va xususiyatlari atroflicha yoritilgan. Shuningdek, sug‘oriladigan yerlardan foydalanish tizimini tartibga solishning iqtisodiy-ekologik mexanizmlarini takomillashtirish muammosini tizimli va kompleks tadqiq etish sxemasi ishlab chiqilgan.*

***Kalit so‘zlar:** suv xo‘jaligi, sug‘oriladigan yerlar, suvni taqsimlash, suv ta‘minoti.*

### I.KIRISH

Jahon yer fondi bugungi kunda 13,4 mlrd. gektarini tashkil etadi uning atigi 1,5 mlrd. gektari, ya‘ni 11 foizi qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi uchun iqtisodiy jihatdan qulay hisoblanadi. Ularning miqdori va sifati tabiiy va andropogen omillar va jarayonlar ta‘sirida yildan-yilga kamayib bormoqda. Demak, global oziq-ovqat muammosini yechish va qishloq xo‘jaligida foydalanish uchun cheklangan yer resurslarining samaradorligini oshirish kelajakda ekstensiv emas, balki intensiv yo‘llarni qo‘llash, shuningdek, yerlarning resurs sifatidagi funksiyalarini yanada kuchaytirish imkoniyatlarini yaratadigan tizimni shakllantirish bozor munosabatlari va mexanizmlari bilan ham bevosita bog‘liqdir.

Sug‘oriladigan yerlar O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining muhim omillaridan biridir. Sug‘oriladigan yer resurslarining holati va ulardan foydalanish darajasiga qarab ishlab chiqaruvchi kuchlarning joylashishi va rivojlanish yo‘nalishi va ko‘lami belgilanadi. Hozirgi kunda O‘zbekiston qishloq xo‘jaligida 24 million gektardan ortiq yerdan foydalanilmoqda, shu jumladan 3,7 million gektarga yaqin sug‘oriladigan ekin maydonlarida aholining ehtiyojlari uchun oziq-ovqat mahsulotlari va iqtisodiyotning turli tarmoqlari uchun zarur xom -ashyo yetishtirilmoqda.

Mamlakatimizda sug‘oriladigan yerlardan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida ko‘plab chora-tadbirlar amalga oshirilishiga qaramasdan so‘nggi yillarda suv resurslarining davriy tanqisligi, global iqlim o‘zgarishi, mavjud yer va suv resurslaridan samarasiz foydalanish, sug‘orish va meliorativ ishlar sifatining pastligi natijasida qishloq xo‘jaligi yerlarining oborotdan chiqarilishi va sug‘oriladigan hududlarda ekologik holatlarning buzilishi global miqyosda jadallashib bormoqda. Shu sababli dunyo yer va suv fondining asosiy muammosi qishloq xo‘jaligida yer va suv resurslaridan foydalanishni tartibga solish bo‘lib qolmoqda.

## II. ADABIYOTLAR TAHLILI

Iqtisodiyot tarmoqlarida qishloq xo‘jaligida suv resurslaridan samarali foydalanishni ekonometrik modellashtirish masalalari bo‘yicha ko‘plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Qishloq xo‘jaligida suv resurslaridan samarali foydalanish masalalarini mamlakatimiz va xorijlik iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida keng tadqiq etilgan.

Mamlakatimiz olimlaridan O.A.Abdug‘aniyev tomonidan mintaqalarda qishloq xo‘jaligida suv resurslaridan samarali foydalanish borasidagi davlat siyosati hamda mintaqalarda oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashda innovatsiyalarning roli ko‘rsatib o‘tilgan [3].


V.N.Krasnoshekov esa o‘z tadqiqotlarida “Qishloq xo‘jaligida suv resurslaridan samarali foydalanish mamlakatda oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashning asosiy ko‘rsatkichlaridan biridir” degan fikrni bildirishadi [4].

Shu o‘rinda 1-rasmga ko‘ra, sug‘oriladigan yerlarning ishlab chiqarish munosabatlari va ishlab chiqarish kuchlari doirasi sifatida foydalanish yo‘nalishlari bilan bog‘liq to‘rtta blokda, ya‘ni “tabiiy resurs”, iqtisodiy resurs-kapital”, “ko‘chmas mulk obyekti” va “xo‘jalik yuritish obyekti” sifatidagi xususiyatlarini, shuningdek ularning ilmiy-nazariy va uslubiy amaliy jihatlarini tadqiq etishning konseptual muammolardan biri bo‘lib hisoblanadi.

## III. NATIJALAR

Iqtisodiyot va jamiyat tomonidan sug‘oriladigan yerlardan foydalanish tizimi yer va suv resurslaridan foydalanishning to‘xtovsiz bo‘lgan obyektiv jarayonini aks ettiradi, chunki foydalanilayotgan yer va suv resurslari jamiyatning har xil moddiy va boshqa turdagi ehtiyojini qondirish zarurati sababli ko‘p maqsadli va ko‘p funksiyali xarakterga ega.

Mazkur o‘zaro bog‘liklikni o‘ziga xos model sifatida baholash mumkin. Demak, sug‘oriladigan yerlardan foydalanish tizimi, bizningcha, bu jamiyat va tabiat qonunlaridan ongli ravishda foydalanish asosida rivojlanadigan, iqtisodiyot va jamiyat tomonidan yer va suv resurslarini to‘xtovsiz, siklli, ko‘p maqsadli tasarruf etish, ularga egalik qilish va ulardan foydalanish hamda mazkur jarayonni tartibga solishda yuzaga keladigan munosabatlar tizimidir. Sug‘oriladigan yerlardan foydalanish tizimini tartibga solishning iqtisodiy-ekologik mexanizmlari esa, bu yer va suvni tasarruf etish, unga egalik qilish va undan foydalanish jarayonlarida vujudga keladigan boshqarish, tashkil etish, rejalashtirish, rag‘batlantirish va sug‘oriladigan hududlarda ekologik talablarga amal qilishni tartibga solishga qaratilgan davlat va sug‘oriladigan yerlardan foydalanuvchilar tomonidan yer va suvdan “tabiiy resurs”, “iqtisodiy resurs” va “xo‘jalik yuritish obyekti” va “soliq solish” obyekti sifatida foydalanishni amalga oshirishda joriy etiladigan tashkiliy-huquqiy, iqtisodiy-ekologik, ijtimoiy, texnik-texnologik va boshqa instrument vositalar majmuidir.



1-rasm. Sug'oriladigan yerlardan foydalanish tizimi iqtisodiy-ekologik mexanizmida yerning ko'p funktsionallik xarakterini ifodalovchi ko'rsatkichlar

#### IV.MUHOKAMA

Bizningcha, sug‘oriladigan yerlardan foydalanish iqtisodiy-mexanizmining elementlari, shu jumladan yer qiymati, resurs to‘lovi kabi muhim iqtisodiy kategoriyalar bilan bog‘liq muammolarni yechishda bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan iqtisodiy nazariya klassiklari F.Kens, A.Tyurgo, U.Petti, A.Smitd, D.Rikordo, A.Marshall va boshqalar tomonidan renta munosabatlari xususiyatlari va qonuniyatlari, ular orqali aniqlangan jamiyat boyligini taqsimlash va qayta taqsimlash usullaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

Sobiq sovet hukumati davrida ushbu usullarni inkor etish natijasida xalqimizning bebaho boyligi bo‘lgan yer va suvga nisbatan xo‘jasizlarcha munosabatda bo‘lindi. Ishlab chiqarish rejasini bajarilishi ketidan quvib, undan foydalanishda tegishli meliorativ, agrotexnik va ekologik talablarga amal qilinmadi.

O‘sha vaqtlarda ekin maydonlarining 90% paxta ekish uchun ajratilar edi. Qanday qilib bo‘lsa ham yuqori hosil olish maqsadida tuproqqa beriladigan mineral o‘g‘it va ximiyaviy moddalar miqdori muttasil oshirib borildi. Dehqonchilikda ilmiy asoslangan almashlab ekish qoidalariga, yer va suv resurslarini tejaydigan meliorativ, agrotexnik va ekologik talablarga amal qilinmadi. Bu esa tuproq unumdorligi bonitetiga salbiy ta‘sir o‘tkazdi. Natijada ekinzorlarning sho‘rlanish darajasi oshdi, hosildorlik pasaydi, ayrim ekin maydonlari foydalanishga yaroqsiz bo‘lib qoldi. Yer, suv kabi qimmatbaho resurslardan intensiv ravishda va ayovsiz foydalanish oqibatida O‘zbekiston aholisini bug‘doy, go‘sht va sut, sabzavot, poliz va kartoshka kabi oziq-ovqat mahsulotlari bilan to‘liq ta‘minlanmaslik holatlariga duch kelindi.

Qolaversa, sug‘oriladigan yerlar unumdorligini oshirishning ahamiyati dunyoning ko‘plab mamlakatlari iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga jiddiy xavf tug‘dirayotgan va jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, global ekologik muammo va pandemiya ta‘sirida aniq ko‘rinib qoldi.

Mutaxassislarning fikricha, XXI asrda kuchayib borayotgan tabiiy resurslarning taqchilligi tendensiyasi, global iqlim o‘zgarishlari, ekin maydonlari sifatining buzilishi, biologik xilma-xillikning pasayishi, nafaqat iqtisodiyot tarmoqlariga, balki butun jahon hamjamiyati turmush farovonligiga jiddiy xavf solmoqda. Keyingi bir necha o‘n yilliklar davomida ko‘plab davlatlar hududlarida kuzatib kelinayotgan cho‘llanish va tuproqlar eroziyasi 2 million gektar atrofidagi yer maydoni unumdorligining sezilarli darajada pasayishiga olib keldi.<sup>5</sup>

Shuning uchun ham mamlakatimizda mavjud yer va suv resurslariga nisbatan ehtiyotkor munosabatda bo‘lish, ulardan samarali foydalanish bo‘yicha tizimli ishlar olib borilmoqda: O‘zbekiston Respublikasi iqlim o‘zgarishi, cho‘llanishga qarshi kurash, biologik xilma-xillikni saqlab qolish konvensiyasi va ekologiya sohasidagi qator boshqa xalqaro shartnomalarga qo‘shildi.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish munosabati bilan mamlakatda tubdan islohotlar olib borish yo‘li tanlanib yer va suv resurslaridan samarali foydalanish bo‘yicha maqbul

<sup>5</sup>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 y.23 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi. №PF-5853-son Farmoni, www.lex.uz.

me'yoriy huquqiy baza shakllantirildi. Bularga O'zbekiston Respublikasining “Yer kodeksi” (1998 y.), “Suv va suvdan foydalanish to'g'risida”gi (1993 y) qonunlarni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyundagi “Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5742-son, 2020-yil 10-iyuldagi “O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan kotsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-6024-son, 2019-yil 23-oktabrdagi “O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5853-son Farmonlari<sup>6</sup> hamda yer va suv resurslaridan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan boshqa me'yoriy huquqiy hujjatlarni misol qilish mumkin.

Natijada sug'oriladigan yer maydonlaridan foydalanish bo'yicha klaster, kooperativ va agrofimlar tashkil etildi, har bir qarich yerni ham hisobga oladigan elektron kartalar yaratildi, avtomatlashgan yer ma'lumotlari bazasi shakllantirildi. Bular orqali qishloq xo'jaligi ekinlarini samarali joylashtirish, monitoring qilish, yer va suv resurslaridan noqonuniy foydalanish holatlarini o'z vaqtida aniqlash va uning oldini olish imkoniyatlari paydo bo'ldi. Sug'oriladigan yerlarda suv resurslaridan foydalanishni yaxshilash maqsadida nodavlat va notijorat Suv iste'molchilari uyushmasi SIU (ilgari suvdan foydalanuvchilar uyushmasi deb atalgan) tashkil etildi, aholining yer va suvga nisbatan munosabatlari tubdan o'zgardi. Eng muhimi yer va suv resurslaridan maqsadli va samarali foydalanishga nisbatan suv iste'molchilarining mas'uliyati oshdi.

Lekin shunga qaramasdan mamlakatimizda sug'oriladigan yerlardan foydalanish tizimini tartibga solish muammolari o'zining to'liq yechimini hali topgani yo'q. Ushbu muammolarga, bizningcha:

birinchidan, qishloq xo'jaligini rivojlantirishning muhim shartlaridan biri mavjud yer va suv resurslardan foydalanishni barqarorlashtirish va yangi sug'orish texnologiyalarini joriy etib borish orqali birlik mahsulotga to'g'ri keladigan suv sarfini minimallashtirishga erishilmayotganligi;

ikkinchidan, hozirgi yer va suv resurslarining cheklanganligi sharoitida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ko'paytirishning maqbul yo'li- yer va suv resurslaridan foydalanishning pirovard natijaga erishishni ko'zda tutadigan intensiv omillarni qo'llashning sustligi;

uchinchidan, agar ekstensiv rivojlanishda ekin ekiladigan maydon muhim ko'rsatkich bo'lsa, intensiv rivojlanishda esa asosiy e'tibor birlik ekin maydonidan yetishtiriladigan mahsulotni ko'paytirish hisobiga xarajatni kamaytirish muhim ko'rsatkich hisoblanadi. Shu sababli sug'oriladigan dehqonchilikda yangi ishlab chiqarish texnologiyasidan foydalangan holda korxonalar faoliyatini samarali olib borish ayni paytda dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Uni hal qilish sug'orma dehqonchilikning iqtisodiy barqarorligini ta'minlaydigan, suv xo'jaligi kompleksining samarali ishlashiga xizmat qiladigan iqtisodiy, ekologik va tashkiliy jihatdan ilmiy asoslangan chora-tadbirlar ishlab chiqilmayotganligi;

<sup>6</sup> www.lex.uz



to‘rtinchidan, suv manбайдan sug‘orma suv iste‘molchisigacha suvni yetkazib beradigan sug‘orish tarmoqlaridagi va bevosita ekin maydonlarini sug‘orish jarayonidagi suv yo‘qotishlarini kamaymayotganligi;

beshinchidan, tuproq osti, yomg‘irlatib va tomchilatib sug‘orish usullarining keng joriy etilmayotganligi, maqbul sug‘orish meyorlarini ishlab chiqilmayotganligi va tuproqqa agrotexnik ishlov berish bilan sug‘orishni muvofiqlashtirilma-yotganligi;

oltinchidan, yomg‘irlatib va pushtalatib sug‘orish usullarida ekin maydonlarida tuproqlarning yuvilib ketishi, ya‘ni irrigatsiya eroziyasi ro‘y berish holatlari ko‘plab kuzatiladi. Buning oldini olish uchun sug‘orish zonalari uchun optimal bo‘lgan sug‘orish meyorlarini qabul qilish tavsiya etiladi;

yettinchida, ma‘lumki, sug‘orish meyori yuqori bo‘lgan ekin maydonlarida sho‘rlangan sizotsuvlari sathi yuqoriga ko‘tariladi va namlikning bo‘g‘lanishi natijasida tuproq yuzasida tuz hosil bo‘lishi hisobiga sug‘oriladigan yerlarda ikkilamchi sho‘rlanish yuzaga kelmoqda. Oqibatda, quruq tuproq massasida tuzning tarkibi meyordagi 0,3% dan ko‘payib katta maydonlarda o‘simliklarning qurib (o‘lib) qolish holati kuzatilmoqda.

Hozirgi vaqtda sug‘oriladigan yer resurslaridan foydalanish tizimini tartibga solish uchun, eng avval, suv xo‘jaligi faoliyati bilan shug‘ullanadigan mehnat jamoasini suvni tejashga rag‘batlantiradigan chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish zarur. Sug‘oriladigan yerlardan foydalanish tizimi suv manbasidan sug‘orish maydonigacha bo‘lgan zanjirning barcha bo‘g‘inlarini qamrab olishi va uning asosida iqtisodiy manfaat yotishi kerak. Tadqiqotlar orqali ilmiy asoslangan sug‘orish meyorlari aniqlanishi, sug‘orish hududlari va asosiy ekinlarga mos ravishda mashina va texnikalar tanlanishi lozim.

Mamlakat suv xo‘jaligi va meliorativ tashkilotlarifaoliyati tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, ularning barchasi bitta yagona tizimda ishlaydi, lekin ular faoliyati samaradorligini ta‘minlovchi tizim yo‘q. Budjetdan moliyalashtirilayotgan tashkilotlar, hech shubhasiz ajratilgan mablag‘larni o‘zlashtirishga intiladi. Bu yerda asosiy kamchiliklardan biri mablag‘larni har qanday yo‘llar bilan sarflashga harakat qiladigan suv xo‘jaligi tashkilotlarini bevosita moliyalashtirishdir.

Ma‘lumki, suv xo‘jaligi tashkilotlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita usullar bilan amalga oshiriladi. Ishlab chiqarish va noishlab chiqarish infratuzulmalarni budjetdan davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash to‘g‘ridan-to‘g‘ri moliyalashtirish usuli hisoblansa, moliyalashtirishni tartibga solishning budjet-soliq va pul-kredit usullari davlat tomonidan moliyalashtirishning bilvosita usullar hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita moliyalashtirish usullaridan foydalanish amaliyoti, suv xo‘jaligi tashkilotlarida ularni o‘zaro uyg‘unlikda joriy qilish zarurligini tasdiqlamoqda. Bundan tashqari hududlararo miqyosdagi maqsadli suv xo‘jaligi dasturlarni moliyalashtirishda davlatning ishtiroki bo‘lishi mumkin. Shuningdek, qishloq xo‘jaligi tarmog‘i suv ta‘minoti infratuzulmasi faoliyati ham budjetdan moliyalashtiriladi. Yirik suv xo‘jaligi loyihalarini budjetdan moliyalashtirish, ularga davlat tomonidan subsidiyalar, dotatsiyalar ajratilishi orqali ham amalga oshirilishi mumkin.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida suv xo‘jaligida davlat tomonidan investitsiyalashning qisqarishi, doimiy budjet taqchilligi sharoitida o‘zini o‘zi moliyalashtirishning asosi bo‘lgan to‘lov asosida suvdan foydalanishning roli oshib boradi. Suvdan foydalanishning bunday turi suv resurslaridan tejamli foydalanishga rag‘bat uyg‘otadi, ya‘ni u, bir tomondan, suv xo‘jaligi tashkilotlari, ikkinchi tomondan, suv iste‘molchilari faoliyatiga ijobiy ta‘sir etadi. Bular esa sug‘oriladigan hududlarda suvdan xo‘jasizlarcha foydalanish oqibatida paydo bo‘ladigan ekologik holatning buzilishining oldini oladi.


Yuzaga kelgan vaziyatdan kelib chiqib to‘lov asosida suvdan foydalanishni hisoblash usullarini ishlab chiqish lozim bo‘ladi. Buning uchun davlatning mazkur suv xo‘jaligi tadbirlarida ishtirok etish shaklini aniqlash kerak. Biroq, sug‘oriladigan yerlardan foydalanish muammosini qishloq va suv xo‘jaligi korxonalarining tashkiliy shaklidan ajralgan holda qarab chiqish kerak emas.

Albatta agrar islohotlarni amalga oshirish muvaffaqiyati va qishloq xo‘jaligida ishlab chikarish samaradorligini oshirish ko‘plab omillarga, birinchi o‘rinda, mamlakatning makroiqtisodiy siyosatiga bog‘liq bo‘ladi. Shu bilan bir vaqtda har bir alohida korxonalarining xo‘jalik yuritish shakli va iqtisodiy mexanizmining ahamiyatini, mikroiqtisodiy munosabatlarini, bozor sharoitiga moslashishini ham hisobga olish muhim ekanligini esdan chiqarmaslik lozim.

Meliorativ tashkilotlar bevosita sug‘oriladigan maydonlarda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirayotgan boshlang‘ich mehnat jamoalari bilan ishlab qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish uchun xizmat qiladi. Shuning uchun ushbu tadqiqotning muhim vazifalaridan biri ularning o‘zaro manfaatli hamkorligining iqtisodiy asoslarini ishlab chiqishdan iborat bo‘ladi. Mavjud sug‘oriladigan maydonlarda barcha tabiiy resurslardan oqilona foydalanib qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligini oshirish nafaqat iqtisodiy, balki ekologik va tabiatdan ratsional foydalanish talablariga ham javob beradi.

## V.XULOSALAR

Bizning nazarimizda, sug‘oriladigan yerlardan foydalanish tizimini tartibga solishni suv yetkazib beruvchi va suv iste‘mol qiluvchi subyektlar o‘rtasida o‘zaro manfaatli iqtisodiy munosabatlarni shakllantirish orqali takomillashtirish mumkin. 2-rasmda mazkur muammo bo‘yicha bizning tadqiqotimiz sxemasi ishlab chiqilgan.



**2-rasm. Sug'oriladigan yerlardan foydalanish tizimini tartibga solishning iqtisodiy-ekologik mexanizmlarini takomillashtirish muammosini tizimli va kompleks tadqiq etish sxemasi.**

Shu o'rinda shuni ta'kidlab o'tish lozimki, suv resurslari taqchil bo'lgan O'zbekiston Respublikasi sharoitida sug'oriladigan yerlarning iqtisodiy-ekologik holatini o'rganish, ekin maydonlarining suv ta'minoti barqarorligiga baho berish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish uchun zaruriy resurslar bilan ta'minlanish darajalarini aniqlash va tahlil qilish sug'oriladigan yerlardan foydalanish tizimini tartibga solishning iqtisodiy-ekologik mexanizmlarini takomillashtirish muammosini tizimli va kompleks tadqiq etishning bosh maqsadi hisoblanadi.

### VI. ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030 yillarga mo'ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida: PF-6024-son Farmon, 10 iyul 2020 yil. — Режим доступа: [www.lex.uz](http://www.lex.uz).



2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Suv resurslarini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida: PQ-4486-son Qaror, 9 oktabr 2019 yil. — Режим доступа: [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
3. Абдуганиев О.А. Истеъмол саватига кирувчи қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари самарадорлигини иқтисодий-статистик таҳлил этиш услубиятини такомиллаштириш // Иқтисодиёт ва таълим илмий журнали. — Тошкент, 2021. — Б. 17–20.
4. Абдуганиев О.А. Ўзбекистонда қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари етиштириш жараёнларини эконометрик моделлаштириш // “UzBridge” электрон журнали. — Тошкент, 2021. — № 2. — Б. 1–17.
5. Аму-Сурхон irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi ma’lumotlari. 2003–2023 йил.
6. Краснощеков В.Н. Эколого-экономическое обоснование эффективности инвестиций в реконструкцию мелиоративных систем // Экономика природообустройства и управление природными ресурсами. — 2012. — № 4. — С. 87–91.
7. Продовольственная и сельскохозяйственная организация ООН (FAO). — Режим доступа: [www.fao.org](http://www.fao.org).
8. Министерство сельского и водного хозяйства Республики Узбекистан. — Режим доступа: [www.agro.uz](http://www.agro.uz).
9. Государственный комитет Республики Узбекистан по статистике. — Режим доступа: [www.stat.uz](http://www.stat.uz).